

---

## Muborak oyda ko'ngillar shod bo'lmoqda

Ayni kunlarda yurtimiz bo'ylab Ramazon shukuhini his qilmoqdamiz. Buni joylarda mehr-saxovat oyi munosabati bilan o'tkazilayotgan iftorlik tadbirlari hamda yo'qlovlarning amalga oshirilayotganidan ham bilish mumkin.

Bugun Farg'ona shahridagi "Afrosiyob" tantanalar majmuasida bir guruh yoshi ulug' insonlar, mahalla faollari hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar a'zolari mehmon bo'lishdi. 500 nafarga yaqin fuqarolar uchun iftorlik dasturxonini yozilib, madaniy tadbir ham o'tkazildi.

Inson qadrini ulug'lash, muhtojlarga ko'mak ko'rsatish maqsadida yozilgan to'kin dasturxon atrofida jam bo'lgan nuroniylar yurtimizga tinchlik, oilalarimizga totuvlik, ro'zg'orimizga qut-baraka tilab, duo qilishdi.

Mazkur tadbirda viloyat va shahar hokimliklari vakillari, sektor rahbarlari, diniy ulamolar hamda shu kunlarda viloyatimizda o'tkazilayotgan "Ma'naviyat festivali" tadbirining targ'ibot guruhi a'zolari ham ishtirok etishdi.

Iftorlik tadbirlari har bir mahallalarda davom etmoqda.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-31 10:39:05